

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASASINING BO'LAJAK OFITSERLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11492893>

Tolibov Nodirjon Norkulovich

O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlar

Akademiyasi kafedra boshlig'i,

Pedagogika fanlari falsafa doktori (phd), dotsent

E-mail:tolibov@inbox.ru

Annotation

Ushbu maqolada Oliy harbiy ta'lif muassasasining bo'lajak ofitserlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ustuvor yo'nalishlari keng tarzda yoritilgan.

Kalit so'zlar

kompetentsiya, harbiy, mediatexnologiya, ofitser, pedagog, muassasa, integratsiya, monitoring, faoliyat, xavfsizlik.

Аннотация

В данной статье широко освещены особенности и приоритеты теоретических и практических аспектов развития профессиональной компетентности будущих офицеров высшего военного учебного заведения.

Ключевые слова

компетентность, военные, медиатехнологии, офицер, педагог, учреждение, интеграция, мониторинг, деятельность, безопасность.

Abstract

This article talks about the features and priorities of the theoretical and practical aspects of developing the professional competence of future officers of a higher military educational institution.

Key words

competence, military, media technologies, officer, teacher, institution, integration, monitoring, activity, security.

"Harbiy kadrlar tayyorlash tizimi doimo yangilanib turishi kerak va kerak bo'lganda undan oldinda bo'lishi lozim. Biz akademiyada va boshqa o'quv muassasalarida kursantlarimiz va tinglovchilarimizning eng ilg'or, innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun eng zamonaviy sharoitlarni yaratib bermoqdamiz"

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,Qurolli Kuchlar

Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Kasbiy kompetentlik rivojlantirishni tadqiq qilish masalasi psixologik-pedagogik va maxsus adabiyotlarni, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarini tahlil etishni ko'zda tutadi.

Jahonda harbiy mutaxassislarining kasbiy kompetentligini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish, texnologik, muhandislik, tadqiqot, tashkiliy, boshqaruv va ishlab chiqarish hamda harbiylik kasbiy kompetentsiyalarning metodologik jihatlarini takomillashtirish, harbiy vatanparvarlik ruhida bo'lajak ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni interfaol ta'limni mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, harbiy mutahasislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahondagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va monitoring qilish, ijtimoiy o'zgaruvchan muhit talablariga mos ravishda fanlararo integratsion o'qitish orqali harbiy ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlar amaliyotga tatbiq etilgan. Bu borada Shanxay Hamkorlik Tashkiloti 2020-yil 10 noyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida mintaqqa xavfsizligi, harbiy tayyorgarlik masalalariga e'tibor qaratilgan. Harbiy ta'limning mazmunini, shakllarini, metodlarini, vositalarini va o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish, harbiy mutahasislarni harbiy amaliyotga yo'naltirish, harbiy xizmatni va kundalik kasbiy faoliyat sohasi bilan o'zaro bog'liqlikda murakkab harbiy vaziyatlarni hal qilish hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirish zaruratini taqozo qiladi.

Mamlakatimizda zamon talablari asosida harbiy ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, oliy harbiy ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori malakali ofitserlarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida"⁹ gi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida va Oliy harbiy ta'lim tizimida bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish, harbiy ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim sifatini nazorat qilishning me'yoriy-

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni:// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. b.39.

huquqiy asoslari yaratildi. Ofitser kadrlarni tayyorlovchi oliy harbiy ta'limga muassasalarining moddiy texnik bazasi mustaxkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'limga muassasalarida ta'limga sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2018-yil 4 avgustdagagi PQ-3898-son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23 fevraldagagi 140-sonli Qarori Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi, 2019-yil 8 oktyabrdagi PQ-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 2 martdagagi PF-5953-sonli "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi, 2020-yil 27 fevraldagagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'limga sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimizda katta ahamiyat kasb etuvchi kompetentsiya va kompetentlik tushunchalariga alohida e'tibor qaratamiz.

Pedagogikaga oid zamonaviy lug'atlarda kompetentsiya tushunchasi (lotinchada *competentia* – huquqiy tomondan mansublik) mansublik shaxsning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarini va majburiyatlarini doirasi sifatida kompetentlik esa savodxonlik darajasi, vujudga keluvchi muammolarni mustaqil hal etish uchun yetarli zarur bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga ega bo'lish tushuniladi.

Kompetentsiya tushunchasi mutaxassisning huquq va majburiyatlar majmuasi, uni hal etishga vakolatli bo'lgan kasbiy masalalar sohasi sifatida olib berilib, mutaxassisning kompetentsiyasi tashkilot yoki korxonanining nizomlari me'yoriy hujjatlari bilan belgilab beriladi hamda lavozim yo'riqnomasida o'z aksini topadi.

Hulosa qilish mumkinki kasbiy kompetentlik – bu mutaxassisda namoyon bo'lgan kompetentsiyalari, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlari tizimidan iborat integrativ sifati, kasbiy faoliyatni samarali bajarishga shaylik va qodirlilikdir. Navigator kompetentligi – bu bo'lajak uchuvchi-muhandisning kasbiy faoliyatni aniq va muddatida bajarishga qodirligi va shayligini aks ettiruvchi kognitiv,

operatsional-faoliyatli, shaxsga doir komponentlari yig'indisidagi integrativ sifatidir. Kompetentligini rivojlantirish - bu kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nostandard vaziyatlarda qaror qabul qilish va real kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga imkon beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23 sentyabrdagi "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori Toshkent.-2018.
4. Tolibov N.N. Uchuvchi-muhandislarni texnik tayyorgarligi jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'llari. Jurnal Mug'allim hem yzliksiz bilimlendirio'// Nekis. 2019.-72-78 b.
5. Carl Ye. Vuono. Professionalism and the Army of the 1990-s.// Military Review. 1990.-297 pp.
6. Gilbert J. The model for the development of teachers. 2004.-258-278 pp.